# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

*Elektron nashr, 741 sahifa.*
*2026-yil, fevral*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal


05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.


Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI....26
**Madaminov Bekzod Allayarovich**

"HUDUDGAZTA'MINOT" AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI....32
**Shukurillaev Jahongir Botir o'g'li**

HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO'YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH....37
**Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.**

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ....42
**Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли**

ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН....48
**Бекзод Умматов**

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА....55
**Вахидов Азизжон Саиджонович**

SUG'URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI....58
**Xalikulova Shirin Utkir qizi**

"ANDIJONDONMAHSULOT" AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI....62
**Xayitboyeva Laylo Oybekovna**

XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI....66
**Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich**

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH....72
**Xolikov Ravshan Anvar o'g'li**

PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH....76
**Obidova Zilola Ikromjon qizi**

HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH....81
**Nomurodova Farangiz Lazizovna**

AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI....87
**Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich**

YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA'MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI....92
**Mirzatov Baxtiyor Toxirovich**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOYILLARI....96
**Mavrulov Ravshan Nematjonovich**

УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ ....................................101
**Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи**

DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ..................................................107
**Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .................................................. 111
**Axmedov Sanjar Temur o'g'li**

RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI ..................................................117
**Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li**

GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI ..................................................123
**Abdirazakov Akmal Ibragimovichб Namozov Og'abek Maxmud o'g'li**

AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS ..................................................128
**Utkirova Maftuna Murodjon qizi**

O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI ............................134
**Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li**

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ..................................................139
**Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li**

TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI ..................................................144
**Qurbonov Jasurbek Pozilovich**

OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN ..................................................150
**Akramov Akbarjon Akmal ugli**

QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI ..................................................156
**Aminov Abbos Mo'minboy o'g'li**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR ..................................................160
**Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich**

MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI ......................165
**Yakubov Temur G'anibekovich**

AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI ......169
**Siroj Zarina Rustambekovna**

AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL ..................................................176
**Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ..................................................181
**Ziyodullayev Qahramon**

ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ ..........................................185
**Хамдамова Гавхар Абсаматовна**

O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIYAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ..................................................191
**Mamatov Baxodir Quldoshovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH ......197
**Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li**

MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ......205
**Abdinazarov Xusan Shaymanovich**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ......209
**Nomozova Qumri Isoyevna**

XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ......216
**Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li**

QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI ......221
**Achilova Firuza Kurbanovna**

BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI ......225
**Rajabov Oybek Panjievich**

MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ......229
**Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li**

MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI ......235
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH ......240
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah**

MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR ......245
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich**

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ......251
**Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li**

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ......257
**Karimov Shohruh Boydulla o'g'li**

"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH ......262
**Astanov Zafar Murodillayevich**

QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODELI ......266
**Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich**

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ......272
**Norboyev Sarvar Azodovich**

O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI ......277
**Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li**

ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH ......283
**B.Beknazarov**

SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI ....288
Abduxalilova Laylo Tohtasinovna

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ ....294
Мегноров Алмардон Абдирахмонович

RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY ....302
Nigmatova Malika

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI....307
Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI ....311
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi

АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ ....316
Киличева Ф.Б.

MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ....320
Kushmanova Mahbuba

GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI ....324
Xamidov Xayriddin Faxritdinovich

DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)....329
Sharapov Farrux Shomuratovich

КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGSI ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ ....333
Ибрахимов Фаррухжон Фарходович

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH ....336
G'oziyeva Mokhira Rustamovna

KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI ....345
Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'lqin Alimardanovich

SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR ....352
To'g'onov Ibroximxo'ja

TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI ....358
Djalalova Sevara Toxtamuratovna

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ....362
Шоев Алим Халмуратович

TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI ....367
Umirzoqova Aziza Olim qizi

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH ....372
Ismatov Raxmatilla Oltinovich

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA....376
Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR ....379
Sadikov Q.M.

СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ....383
Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI ....390
S.M. Raximova

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI....395
Qurbanova Muazzam Fazliddinovna

IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI ....399
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI ....404
Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH....408
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich

FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI ....412
Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI....418
Sultanov Anvar Abdullaevich

INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH ....423
Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi

YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI ....429
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li

NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ....434
Otayor Usmonaliyev

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI....440
Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI....443
Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna

DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI....450
Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li

SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI ....454
Ismoilov Zuhriddin Sayitqulovich

ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI ....459
Toshniyozov Otabek Hakimovich

MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI ....464
Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi

BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI ................470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi

TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI ................476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ................483
Abduraxmonova Feruzabonu

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI ................489
Xoshimov Sobir Murtazayevich

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ................495
Uzakova Umida Ruziyevna

OLIY TA’LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O‘QITUVCHI–TALABA NISBATI O‘RTASIDAGI IQTISODIY BOG‘LIQLIK................502
Dusanov Salim Mamarasulovich

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ ................507
Рашидов Авазбек Рахимович

BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI ................516
Radjapova Latofat Sardorovna

DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH ................523
Ahmadov Ilhom Aktam o‘g‘li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi

ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ ................530
Д.М. Жураханов

O‘ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI................537
Akbarov Husniddinjon Mo‘ysin o‘g‘li

MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH ................544
Xolmirzayev Ulug‘bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich

DON MAHSULOTLARI TARMOG‘IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ................548
Aipova Iroda Ikramovna

BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O‘ZGARISHLAR TAHLILI ................554
Toshov Mirzabek Hakimovich

TEMIR YO‘L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI ................560
Nurxo‘jayeva Xilola Hakimxo‘jayevna

СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА................568
Teshaboyev To‘lqin Zakirovich, Muradov Botir Xayat

IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE’MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI ................578
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg‘unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o‘g‘li

SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI................584
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich

SUN'IY INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI ....591
**Sobirov Abdurasul Abdugafarovich**

IDENTIFICATION OF WEAVING STRUCTURES IN PILE FABRICS ....596
**Bahrom Baturovich Dautov, Bakhtiyor Yormakhmatovich Abduganiyev, Erkin Shamsiddinovich Rayxonov, Nazar Kilichov Bafoevich**

INNOVATIVE APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY IN COMMERCIAL BANKS....602
**Otajanova Shahnoza Shuhratovna**

AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI....608
**Pirmedova Xayitgul Muxammedovna**

TIJORAT BANKLAR FAOLIYATIDA DAROMADLAR VA UNING AHAMIYATI ....613
**Kenjayev M.G'.**

MAJBURIYATLAR AUDITINING ASOSIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI....618
**Ergasheva Vasila Abdumajitovna**

MAMLAKATIMIZDA OLIY TA'LIM EKSPORT XIZMATLARI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA'MINLASHNI TAKOMILLASHTIRISH....623
**Abdusattarova Dildora Bohodirovna**

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI TAHLILI ....630
**Djurayeva Lola Abdugabbarovna**

JAMOAT YO'LOVCHI TRANSPORTINI YO'NALISHLARDA HARAKATI MUNTAZAMLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI OMILLAR ....635
**Nazarov Anvar Aripovich, Siddiqov Beknazar Jumanazar o'g'li**

TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....643
**Ismatullayeva Munisxon Bori qizi**

O'ZBEKISTONDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH: 2026-YIL ISLOHOTLARI VA RAQAMLI MA'MURCHILIK....649
**Yakubov San'atbek Ravshanbekovich**

ISHLAB CHIQARISH SANOATI CHIQINDILARIDAN LITIY BIRIKMALARINI AJRATIB OLISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIK YECHIMLARI....655
**Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Komilov Botir Asqar o'g'li**

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING MOLIYAVIY RISKLARINI BAHOLASHDA MIQDORIY USULLARDAN FOYDALANISH ....663
**Raximov Abduxalil Toshbotirovich**

JUN TOLASINI MAYDA VA YIRIK IFLOSLIKLARDAN TOZALASH TEXNOLOGIYASI VA USKUNALARINI TAKOMILLASHTIRISH....669
**Omonturdiyev Ortiq Eshboyevich**

O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDA KASB-HUNAR TA'LIMI TERMINLARINING SEMANTIK QIYOSIY TAHLILI....673
**Jabbarova Gulbahor Jumanazarovna**

GAZ BALLONLI AVTOMOBILLARDA RADIOTO'LQINLI UZATMALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TEXNIK NAZORAT TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH....677
**Mirzayev Bahodir Nuritdinovich, Zulfiqorova Guldona Akbarjon qizi**

MINTAQANING TASHQI SAVDO AYLANMASINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH USULLARI....682
**G'oyibnazarov Muxammad Xamidbekovich**

IQTISODIY TADQIQOTLARDA SO'ROV O'TKAZISH METODI VA UNING ANKETA HAMDA INTERVYU SHAKLLARINI QO'LLASH MASALALARI ....687
**Dusmuratov Radjapbay Davlatbayevich**

O‘ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATI RIVOJLANISHI VA BIZNESDA MANFAATLAR UYG‘UNLIGI ......693
Sirojiddinov Ikromiddin Qutbiddinovich

DAVLAT MOLIYASI VA BANK-MOLIYA INSTITUTLARINING IQTISODIY O‘SISHDAGI O‘RNI ......698
Sayitbayev Shermirza Datkamirzaevich

TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASINI MUSTAHKAMLASH YO‘NALISHLARI ......703
Xolmatov Dilmurod Maxmudjonovich

TIJORAT BANKLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: AN’ANAVIY BANKING TIZIMIDAN NEOBANKLARGA O‘TISH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI ......711
Shokirov Sardor Inotdullo o‘g‘li

AVTOMATIK LOKOMATIV SIGNALIZATSIYA KODLARINI UZATISH VA DESHIFRATSIYALASH QURILMASI ISHINI TAHLIL QILISH VA DASTURIY TA’MINOTINI ISHLAB CHIQISH ......718
Raxmonov Bobomurod Baxtiyorovich, Qodirov Izzatjon Abrorjon o‘g‘li

ФИНАНСОВАЯ МОДЕЛЬ УСКОРЕНИЯ РАЗВИТИЯ ИННОВАЦИОННОЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ ЧЕРЕЗ ОПТИМИЗАЦИЮ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОДДЕРЖКИ СТАРТАП-ПРОЕКТОВ В ВУЗАХ ......724
Касимова Наргиза Сабитджановна

KORXONALARDA PUL OQIMLARINI BOSHQARISH SAMARADORLIGI VA MOLIYAVIY BARQARORLIK O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK ......729
Omonov Otajon Juraqulovich

INVESTITSIYALAR VA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI ......734
Gafurova Umida Fatixovna



# INVESTITSIYALAR VA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG‘OR TAJRIBALARIDAN FOYDALANISH YO‘NALISHLARI

**Gafurova Umida Fatixovna**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
Moliya va moliyaviy texnologiyalar kafedrasi dotsenti
E-mail: umidag85@gmail.com
ORCID: 0000-0002-7997-7169
JEL Classification: M4, M42, O31, O32

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada investitsiya va innovatsion faoliyat samaradorligini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribasi kontekstida tadqiq etilgan. Tadqiqot doirasida Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil va Singapur kabi davlatlarning innovatsion ekotizimlari, ularda qo‘llaniladigan baholash indikatorlari hamda ekonometrik modellar tizimli ravishda tahlil qilingan. O‘zbekiston iqtisodiyotining 2020-2024-yillardagi statistik ko‘rsatkichlari asosida investitsiyalarning natijadorligi regressiya va korrelyatsion tahlillar yordamida baholangan. Tadqiqot yakunida milliy iqtisodiyotda innovatsion “input-output” mutanosibligini ta’minlashga qaratilgan ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: investitsiya samaradorligi, innovatsion faoliyat, xorijiy tajriba, ekonometrik modellashtirish, Global innovatsiya indeksi, VAR modeli, inson kapitali, “yashil” iqtisodiyot.

Abstract. This scientific article examines the improvement of methodological approaches to evaluating the efficiency of investment and innovation activities in the context of advanced foreign experience. The study provides a systematic analysis of the innovation ecosystems of Japan, the Republic of Korea, Israel, and Singapore, including the evaluation indicators and econometric models applied in these countries. Based on the statistical data of Uzbekistan’s economy for 2020-2024, the effectiveness of investments was assessed using regression and correlation analysis methods. The study concludes with the development of scientific proposals and practical recommendations aimed at ensuring innovative “input-output” balance within the national economy.

Keywords: investment efficiency, innovation activity, foreign experience, econometric modeling, Global Innovation Index, VAR model, human capital, green economy.

Аннотация. В данной научной статье исследуются вопросы совершенствования методологических основ оценки эффективности инвестиционной и инновационной деятельности в контексте передового зарубежного опыта. В рамках исследования проведён системный анализ инновационных экосистем Японии, Республики Корея, Израиля и Сингапура, а также применяемых в них индикаторов оценки и эконометрических моделей. На основе статистических показателей экономики Узбекистана за 2020-2024 годы эффективность инвестиций оценена с использованием регрессионного и корреляционного анализа. По результатам исследования разработаны научные предложения и практические рекомендации, направленные на обеспечение инновационной сбалансированности по модели «input-output» в национальной экономике.

Ключевые слова: эффективность инвестиций, инновационная деятельность, зарубежный опыт, эконометрическое моделирование, Глобальный инновационный индекс, VAR-модель, человеческий капитал, «зелёная» экономика.

## KIRISH

Global iqtisodiy raqobat kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatlarning barqaror iqtisodiy oʻsishi faqat ekstensive omillarga emas, balki investitsiyalarning innovatsion natijadorligiga ham bevosita bogʻliq boʻlib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlangan "Oʻzbekiston - 2030" strategiyasida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YaIM) hajmini 160 milliard AQSh dollariga yetkazish hamda innovatsion rivojlanish orqali yuqori daromadli davlatlar qatoriga kirish ustuvor strategik vazifa sifatida belgilangan [2]. Mazkur maqsadlarga erishish uchun har yili yirik hajmdagi investitsiyalarni jalb etish va ularning iqtisodiy samaradorligini tizimli ravishda baholab borish muhim ahamiyat kasb etadi [3].

Xalqaro reytinglar, xususan, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (WIPO) tomonidan e'lon qilinadigan Global innovatsiya indeksi (GII) ma'lumotlari Oʻzbekistonda innovatsion resurslarni (input) yuqori qoʻshilgan qiymatga ega mahsulot va xizmatlarga (output) aylantirish samaradorligini yanada oshirish zarurligini koʻrsatadi [4]. 2024-yilgi hisobot natijalariga koʻra, Oʻzbekiston innovatsion kirish koʻrsatkichlari boʻyicha 71-oʻrinni, innovatsion chiqish koʻrsatkichlari boʻyicha esa 91-oʻrinni egallagan [5]. Mazkur tafovut investitsiyalarni boshqarish va baholash metodologiyasini takomillashtirish, shuningdek, rivojlangan davlatlarda sinovdan oʻtgan ekonometrik vositalar hamda institutsional yondashuvlarni moslashtirish zarurligini anglatadi.

Tadqiqotning maqsadi - xorijiy mamlakatlarning investitsiya va innovatsiya samaradorligini baholash borasidagi ilgʻor tajribasini oʻrganish asosida Oʻzbekiston korxonalari uchun ekonometrik modellashtirishning optimal yoʻnalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsiya va innovatsiyalarning oʻzaro bogʻliqligi klassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalarning markaziy mavzularidan biri hisoblanadi. Klassik va neoklassik yondashuvlarda A. Smit hamda D. Rikardo ishlab chiqarish omillari sifatida kapital va mehnatni asosiy omil sifatida talqin qilgan boʻlsalar, Y. Shumpeter innovatsiyalarni ("yangi kombinatsiyalar") iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida ilmiy asoslab bergan. R. Solou oʻzining iqtisodiy oʻsish modelida texnologik taraqqiyotni ekzogen omil sifatida kiritgan, P. Romer va R. Lukas kabi endogen oʻsish nazariyasi vakillari esa innovatsiyalarni investitsiyalar hamda inson kapitalining bevosita natijasi sifatida izohlaganlar.

Xorijiy tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar ham mazkur bogʻliqlikni empirik jihatdan tasdiqlaydi. G. Bekker (1962-yil) va T. Shults inson kapitaliga yoʻnaltirilgan investitsiyalar innovatsion rivojlanishning asosiy manbai ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Barro va Li (1996-yil) ta'lim sifati hamda innovatsion oʻsish oʻrtasidagi bogʻliqlikni panel ma'lumotlar asosida tahlil qilganlar [6]. Zamonaviy ekonometrik baholash amaliyotida J. Tinbergen va V. Grin tomonidan ishlab chiqilgan regressiya modellari investitsiya loyihalarini prognozlash va ularning samaradorligini aniqlashda keng qoʻllanilmoqda [7].

Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ham investitsiya samaradorligini oshirish masalalari muhim ilmiy yoʻnalish sifatida shakllangan. D. Gʻozibekov, T. Qoraliev va N. Xaydarov tomonidan investitsiya jarayonlarining nazariy asoslari chuqur oʻrganilgan [8]. I. Madaminov va F. Mahmudov korxonalar darajasida innovatsion jarayonlarni ekonometrik modellashtirish boʻyicha empirik tadqiqotlar olib borgan. Korporativ boshqaruv va nazorat tizimlarining investitsiya samaradorligiga ta'siri O. Barakaev hamda A. Karimov tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan boʻlib, ularga koʻra, "audit uchligi" (tashqi audit, ichki audit va audit qoʻmitasi) investitsiya jarayonlarida shaffoflik va samaradorlikni ta'minlovchi muhim institutsional mexanizm hisoblanadi.

Shu bilan birga, Oʻzbekistonning hozirgi rivojlanish bosqichida xorijiy tajribani milliy sharoitga moslashtirish, ayniqsa "yashil" investitsiyalar hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini inobatga olgan holda baholash metodologiyasini yanada takomillashtirish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon boʻlmoqda.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, statistik guruhlash hamda ekonometrik modellashtirish usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Maqolaning empirik qismida investitsiyalar va natijaviy koʻrsatkichlar oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni aniqlash maqsadida bir qator zamonaviy ekonometrik vositalar qoʻllanildi. Xususan, investitsiyalar (X) hamda natijaviy koʻrsatkich (Y) oʻrtasidagi bogʻlanish zichligini baholash uchun juft korrelyatsiya koeffitsiyenti (Rxy) hisoblandi [9]. Shuningdek, chiziqli va nochiziqli (darajali) regressiya modellari qurildi hamda elastiklik koeffitsiyentini aniqlash imkonini beruvchi Log-Log modeli asosiy tahlil vositasi sifatida qabul qilindi: $\ln y = \ln a + b_1 \ln x_1 + b_2 \ln x_2 + \varepsilon$.

Investitsiyalarning vaqt omili ta'sirida namoyon boʻladigan kechikish (lag) effektlarini inobatga olish maqsadida VAR (Vector Autoregression) modeli qoʻllanildi, bu esa dinamik oʻzaro ta'sirlarni chuqurroq baholash imkonini berdi. Bundan tashqari, innovatsion tizimlarning nisbiy samaradorligini aniqlashda DEA (Data Envelopment Analysis) usuli qoʻllanilib, "input-output" mutanosibligi asosida baholash amalga oshirildi.

Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2015-2024-yillarga oid rasmiy hisobotlari, shuningdek, WIPO, Jahon banki va OECDning ochiq statistik ma'lumotlaridan foydalanildi. Mazkur manbalar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston iqtisodiyotida 2024-yilda investitsion faollikning barqaror va yuqori sur'atlarda o'sishi kuzatildi. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2023-yilga nisbatan 27,6 foizga oshdi. Mazkur o'sish iqtisodiyotda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotganini hamda real sektorni modernizatsiya qilish jarayonlari jadallashganini ko'rsatadi.

Shuningdek, markazlashmagan (xususiy va korporativ) investitsiyalar ulushining 89,5 foizni tashkil etgani iqtisodiyotning bozor tamoyillari asosida izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Markazlashgan investitsiyalar ulushining qisqarishi esa xususiy sektor faolligining ortib borayotganini va investitsiya jarayonlarida institutsional islohotlarning samaradorligini aks ettiradi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar va ularning manbalari (2015-2024-yillar)[1]

| Yillar | Jami investitsiyalar (mlrd so'm) | O'sish sur'ati (%) | Markazlashmagan investitsiyalar ulushi (%) | Markazlashgan investitsiyalar ulushi (%) |
|---|---|---|---|---|
| 2015-yil | 44 810,4 | - | 78,4 | 21,6 |
| 2020-yil | 210 195,1 | 13,3 | 82,1 | 17,9 |
| 2022-yil | 266 240,0 | - | 85,3 | 14,7 |
| 2023-yil | 352 100,0 | 22,1 | 86,0 | 14,0 |
| 2024-yil | 449 279,6 | 27,6 | 89,5 | 10,5 |

2024-yilda davlat budjeti mablag'lari hisobidan yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 9,7 foizga qisqargan bo'lsa-da, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (FDI) hajmi ikki barobarga oshib, 7,2 milliard AQSh dollaridan ziyodni tashkil etdi. Mazkur holat investitsiya jarayonlarida xorijiy kapital ishtirokining ortib borayotganini hamda texnologik transfer, boshqaruv tajribasi va innovatsion yechimlarning kirib kelishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Shu bois investitsiya samaradorligini baholashda xorijiy kapitalning texnologik va institutsional ta'sirini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy vazifa sifatida namoyon bo'ladi.

Investitsiya samaradorligini baholashning xalqaro metodologiyasi, xususan, Global innovatsiya indeksi (GII) tizimi "Innovatsion kirish" (Inputs) va "Innovatsion chiqish" (Outputs) ko'rsatkichlariga asoslanadi. Ushbu yondashuv resurslar hajmi va ularning natijaviy samarasi o'rtasidagi nisbatni aniqlash imkonini beradi (2-jadval).

2-jadval. O'zbekiston va tanlangan mamlakatlarning GII reytingidagi ko'rsatkichlari (2024-2025-yillar)[2]

| Mamlakat | Umumiy reyting | Kirish (Inputs) | Chiqish (Outputs) | Samaradorlik koeffitsiyenti |
|---|---|---|---|---|
| Shveytsariya | 1 | 1 | 1 | 1,00 |
| Janubiy Koreya | 6 | 6 | 10 | 0,85 |
| Isroil | 14 | 25 | 13 | 1,22 |
| Singapur | 4 | 1 | 12 | 0,65 |
| O'zbekiston | 79 | 69 | 92 | 0,75 |

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, Isroil "chiqish" ko'rsatkichi bo'yicha "kirish"ga nisbatan yuqoriroq natijani qayd etgan, ya'ni nisbatan kamroq resurs sarflab, yuqori innovatsion samaraga erishgan (samaradorlik koeffitsiyenti - 1,22). O'zbekistonda esa mazkur ko'rsatkich 0,75 ni tashkil etadi. Bu holat innovatsion resurslarni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot va xizmatlarga aylantirish samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjudligini anglatadi hamda investitsiyalarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribasi investitsiya va innovatsiya samaradorligini baholash metodologiyasini rivojlantirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreyada milliy R&D loyihalarini baholash uchun maxsus vakolatli organ - KISTEP (Korea Institute of S&T Evaluation and Planning) faoliyat yuritadi. Ushbu institut metodologiyasi uch bosqichni o'z ichiga oladi: rejalashtirish bosqichida loyihaning strategik ahamiyati va bozor talabiga mosligi baholanadi; investitsiya bosqichida budjet mablag'lari optimal

1 Jadval ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining 2015-2024-yillarga oid dastlabki ma'lumotlari asosida hisoblangan.

2 Samaradorlik koeffitsiyenti "Chiqish" ko'rsatkichining "Kirish" ko'rsatkichiga nisbati asosida hisoblangan.

taqsimlanadi va risklarni boshqarish mexanizmlari qo‘llaniladi; baholash bosqichida esa loyiha natijasida olingan patentlar, ilmiy maqolalar hamda tijoratlashtirilgan mahsulotlar hajmi aniqlanadi. Ekonometrik jihatdan Koreya tajribasida Panel DEA usuli keng qo‘llanilib, u universitetlar va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi hamkorlik samaradorligini miqdoriy baholash imkonini beradi.

Singapur tajribasida esa RIE2025 (Research, Innovation and Enterprise 2025) strategiyasi doirasida 25 milliard AQSh dollari (YaIMning taxminan 1 foizi) miqdorida investitsiya yo‘naltirilgan. Mazkur yondashuvning o‘ziga xos jihati investitsiyalarni to‘rtta ustuvor strategik yo‘nalish - ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, barqaror rivojlanish va raqamli iqtisodiyot - bo‘yicha taqsimlash hamda ularning samaradorligini “bottom-up” (pastdan yuqoriga) tamoyili asosida baholashdan iborat.

Isroilda investitsiya samaradorligini ta’minlashda “incubator and start-up” tizimi muhim o‘rin tutadi. Isroil Innovatsiya agentligi (IIA) tomonidan qo‘llaniladigan “quality mark support” mexanizmi davlat investitsiyasini loyihaning istiqbolliligini tasdiqlovchi sifat belgisi sifatida namoyon etadi va xususiy venchur kapitalini jalb qilishga xizmat qiladi. Isroil metodologiyasida ekonometrik modellar tarkibida “venture capital intensity” va “start-up density” ko‘rsatkichlari asosiy omillar sifatida qo‘llaniladi.

Empirik tahlil doirasida O‘zbekiston korxonalarida investitsiya va innovatsiya samaradorligini baholashda xorijiy tajriba elementlari asosida olingan natijalar ko‘rib chiqildi. Jumladan, I. Madaminov tomonidan “Xorazmdonmahsulotlari” AJ misolida o‘tkazilgan regressiya tahlilida investitsiyalar, innovatsion mahsulot hajmi va undan olingan foyda o‘rtasidagi bog‘liqlik o‘rganilgan. Model natijalariga ko‘ra, investitsiyalarning 1 foizga oshishi foydaning o‘rtacha 0,11 foizga oshishiga olib keladi. Ushbu ko‘rsatkich investitsiyalarning iqtisodiy qaytimi mavjudligini tasdiqlaydi, shu bilan birga, innovatsion yo‘naltirilgan investitsiyalar ulushini oshirish orqali samaradorlikni yanada kuchaytirish imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, O‘zbekistonning 2013-2023-yillardagi vaqt qatorlari asosida o‘tkazilgan VAR tahlili investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri 1-2 yillik lag (kechikish) bilan namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi [10]. Bu natija investitsiya siyosatini baholashda qisqa muddatli emas, balki o‘rta muddatli dinamik ta’sirlarni ham hisobga olish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi (3-jadval).

3-jadval. VAR modeli natijalari va prognoz ko‘rsatkichlari[3]

| Ko‘rsatkich | Koeffitsiyent | Statistik ahamiyatlilik (p-value) |
|---|---|---|
| Investitsiya ($X_1$) | 0,134 | 0,002 |
| Innovatsion xarajat ($X_2$) | 0,056 | 0,045 |
| AKT xarajatlari ($X_3$) | 0,182 | 0,001 |

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar, xususan, AKT sohasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar an’anaviy sanoat investitsiyalariga nisbatan yuqoriroq iqtisodiy samaradorlikni ta’minlamoqda [11]. Mazkur holat raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish investitsiya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozimligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Xorijiy tajriba hamda o‘tkazilgan empirik tahlillar natijalariga tayangan holda, O‘zbekistonda investitsiya samaradorligini baholash metodologiyasini bir qator ustuvor yo‘nalishlarda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Avvalo, zamonaviy baholash tizimi faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanib qolmasdan, “yashil” investitsiyalar va barqaror rivojlanish omillarini ham qamrab olishi zarur. OECD tavsiyalariga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyoti Ekologik Kuznets egri chizig‘i (EKC) doirasida transformatsion bosqichda rivojlanmoqda [12]. Shu bois ekonometrik modellarga ekologik samaradorlik omilini kiritish maqsadga muvofiqdir. Masalan, vaqt qatorlari modeli quyidagi ko‘rinishda ifodalanishi mumkin:

$$Y_t = c + A_1 Y_{t-1} + A_2 Y_{t-2} + \ldots + A_p Y_{t-p} + + \varepsilon_t,$$

bu yerda GreenFactor $CO_2$ emissiyasini kamaytirish darajasi yoki energiya tejamkorligi koeffitsiyenti sifatida talqin etiladi [13]. Bunday yondashuv investitsiyalarning nafaqat iqtisodiy, balki ekologik natijadorligini ham kompleks baholash imkonini beradi.

Shuningdek, inson kapitali va kadrlar malakasi innovatsion samaradorlikning muhim determinantlaridan biri hisoblanadi. F. Mahmudov va B. Bayxonov tadqiqotlari innovatsiya samaradorligining sezilarli qismi xodimlarning malaka darajasi hamda ta’lim sifati bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Xorijiy amaliyotda, xususan, Janubiy Koreyaning KISTEP agentligi baholash jarayonida “Graduate share in R&D” ko‘rsatkichidan asosiy indikator sifatida foydalanadi. Bu yondashuv ilmiy-tadqiqot faoliyatida yuqori malakali kadrlar ulushining innovatsion natijalarga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Investitsiyalarni baholashda korporativ boshqaruv va audit tizimlarining takomillashuvi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot assimetriyasini kamaytirish va ma’lumotlar ishonchliligini ta’minlash maqsadida O. Barakaev

3 Muallif tomonidan yaratilgan.

tomonidan taklif etilgan “audit uchligi” (tashqi audit, ichki audit va audit qo‘mitasi) mexanizmini korxonalarda keng joriy etish maqsadga muvofiqdir. Ushbu yondashuv ekonometrik modellar uchun foydalaniladigan statistik ma’lumotlarning haqqoniyligini oshiradi hamda investitsiya qarorlarining asoslanganligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi metodologik tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, investitsiya loyihalarini baholashda “multi-criteria analysis” yondashuvini qo‘llash zarur bo‘lib, bunda NPV (sof keltirilgan qiymat) va IRR (ichki daromadlilik normasi) bilan bir qatorda innovatsion natijadorlik (patentlar soni, yangi mahsulotlar ulushi) hamda ijtimoiy ta’sir ko‘rsatkichlari ham inobatga olinishi lozim. Ikkinchidan, ekonometrik modellashtirishda “Panel VAR” usulini joriy etish turli tarmoqlardagi korxonalar investitsion xulq-atvorini qiyosiy tahlil qilish va eng yuqori samaradorlikka ega yo‘nalishlarni aniqlash imkonini beradi [14]. Uchinchidan, venchur moliyalashtirish mexanizmlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, Isroil tajribasiga asoslangan holda innovatsion tavakkalchilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash instrumentlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. To‘rtinchidan, statistik bazani raqamlashtirish, xususan, “smart manufacturing” va “digital transformation” indikatorlarini milliy statistik hisobot tizimiga kiritish baholash modellarining aniqligi va prognoz salohiyatini oshiradi.

Umuman olganda, investitsiya va innovatsiya samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish kompleks yondashuvni, ya’ni iqtisodiy, ekologik, institutsional va inson kapitali omillarini o‘zaro uyg‘unlikda hisobga olishni talab etadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Investitsiyalar va innovatsion faoliyat samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik maqsadlariga erishishda muhim institutsional va ilmiy poydevor vazifasini bajaradi. Xorijiy mamlakatlar, xususan, Yaponiya, Janubiy Koreya, Isroil va Singapur tajribasi shuni ko‘rsatadiki, yuqori samaradorlikka erishish omili faqat moliyaviy resurslar hajmi bilan emas, balki ularning inson kapitali, ilmiy-tadqiqot faoliyati va yuqori texnologiyalarga yo‘naltirilganligi, shuningdek, tizimli monitoring va baholash mexanizmlarining mavjudligi bilan belgilanadi.

O‘tkazilgan ekonometrik tahlillar natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda investitsiyalar natijadorligini oshirish uchun, avvalo, raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish hamda kadrlar malakasini tizimli ravishda rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratish zarur. 2024-yilgi statistik ma’lumotlar iqtisodiyotda investitsion faollik sezilarli darajada oshganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, Global innovatsiya indeksidagi “chiqish” ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash uchun innovatsion “kirish” resurslaridan foydalanish samaradorligini taxminan 15-20 foizga oshirish imkoniyati mavjud.

Taklif etilayotgan metodologik yondashuvlar va ekonometrik modellar korxonalar darajasida investitsion qarorlar qabul qilish sifatini oshirish, risklarni samarali boshqarish hamda yakuniy natijada milliy mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu esa iqtisodiy o‘sishning barqaror va innovatsion modelini shakllantirish uchun zarur ilmiy-amaliy asosni ta’minlaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. https://lex.uz/docs/-6600413.
2. Barakaev O.O. Zamonaviy korporativ boshqaruv tizimida audit: nazariya, metodologiya va amaliyot. — T.: “Chinor Fayzi Baland”, 2021.
3. WIPO. Global Innovation Index 2024-2025. Report for Uzbekistan. Geneva, 2024-2025.
4. Bayhonov B., Abdurakhimova S., Adilova G. Econometric analysis of evaluation of investment projects implemented in the Republic of Karakalpakstan. // World Economics & Finance Bulletin, 2023.
5. Madaminov I.O. Econometric modeling of improving the financial mechanism for ensuring investment and innovation activities of enterprises. // International Journal of Economics, Commerce and Management, 2022.
6. Mahmudov F. Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. // International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020.
7. Review.uz. O‘zbekiston iqtisodiyotining 2024-yildagi rivojlanish dinamikasi.
8. Khalimjonov N. An Econometric Analysis of Air Contamination and Green Transition in Uzbekistan. // Economic Development and Analysis, 2024.
9. OECD. Roadmap for Sustainable Investment Policy Reforms in Uzbekistan. Paris, 2024.
10. KISTEP (Korea Institute of S&T Evaluation and Planning). Annual Reports on National R&D Evaluation, 2023-2025.
11. Assessment of the Efficiency of Investment Activities. — inLIBRARY, accessed on February 10, 2026. https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/28175/29001.
12. Econometric Modeling and Forecasting the Impact of Tax Burden on Enterprise Performance Indicators. // International Journal of Artificial Intelligence — inLIBRARY, accessed on February 10, 2026. https://inlibrary.uz/index.php/ijai/article/view/70768.
13. The Role of R&D Expenditures on High-Technology Product Exports: A Panel Causality Analysis for OECD Countries. — IDEAS/RePEc, accessed on February 10, 2026. https://ideas.repec.org/a/ist/ekoist/v0y2024i41p151-160.html.

14. Uzbekistan Ranking in the Global Innovation Index 2024. — WIPO, accessed on February 10, 2026. https://www.wipo.int/gii-ranking/en/uzbekistan.
15. Econometric Modelling of the Innovation Process in Uzbekistan. — ResearchGate (PDF), accessed on February 10, 2026. https://www.researchgate.net/publication/339387225.
16. Economic Growth with Environmental Hurdles in Uzbekistan: Testing the EKC Hypothesis. — Frontiers in Environmental Science, accessed on February 10, 2026. https://www.frontiersin.org/journals/environmental-science/articles/10.3389/fenvs.2025.1589766.
17. Regional Features of Investment Activeness in the Republic of Uzbekistan. — E3S Web of Conferences, 2023. https://www.e3s-conferences.org/articles/e3sconf/pdf/2023/86/e3sconf_pdsed2023_04004.pdf.
18. GGGI. Uzbekistan Country Planning Framework 2024-2028. accessed on February 10, 2026. https://gggi.org/wp-content/uploads/2025/03/digital_GGGI-Uzbekistan-CPF_EN_with-annex-1.pdf.
19. Econometric Analysis of Evaluation of Investment Projects. — Neliti, accessed on February 10, 2026. https://media.neliti.com/media/publications/601405.
20. Analysis of the Impact of SMEs' Production Output on Kazakhstan's Economic Growth Using the ARDL Method. — MDPI Economies, 2026. https://www.mdpi.com/2227-7099/13/2/38.
21. Management Model of Information Resources in Small Business Entities and Its Impact on Economic Efficiency. // Innovation Science and Technology, accessed on February 10, 2026. https://ist-journal.uz/index.php/IST/article/view/520.
22. Sustainable Economic Growth of Uzbekistan in 2024. — Zenodo, accessed on February 10, 2026. https://zenodo.org/records/15075563.
23. Khalimjonov N. Google Scholar Profile, accessed on February 10, 2026. https://scholar.google.com/citations?user=3YhC1OcAAAAJ&hl=en.
24. Micro- and Macroeconomic Significance of Investment. — inLIBRARY, accessed on February 10, 2026. https://inlibrary.uz/index.php/ijpse/article/view/114090.
25. Econometric Modeling of the Process of Financing Investment Activity. — International Journal of Economics and Commerce Management, 2022. http://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2022/01/10118.pdf.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 2**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**

+998 93 718 40 07 https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal t.me/yait_2100